



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Sanjar Baxronkulovich Boboqulov Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
Фарангис Азамовна Ишанкулова Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
Севара Абдиназаровна Бабаназарова Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarining tutgan o'rni va ahamiyati	91
Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Елена Вячеславовна Гольшева Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
To'liqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
Azizjon Shukrilloyevich Berdimurodov Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
Dostonbek Furqat o'g'li Tilovmurodov Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
Shohro' Baxtiyorovna Navruz-zoda Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatillayev Turizm va mehmondo'stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg'unlashtirish masalalari	136
Йылмаз Улви Узун Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
Askar Axrorovich Siddiqov Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
Diyora Farhod kizi Bahriddinova Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

<p>О.Пардаев</p> <p>Факторы, влияющие на повышение эффективности коммунальных услуг и способы их определения</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются факторы, влияющие на повышение эффективности предоставления коммунальных услуг, и способы их определения. При этом рекомендуется разделить факторы, влияющие на изменение эффективности предоставления коммунальных услуг на четыре группы: экономические, социальные, технические и экологические, а также раскрывается их содержание и направленность показателей, входящих в каждую группу.</p> <p>Ключевые слова: коммунальные услуги, экономическая эффективность, социальная эффективность, техническая эффективность, экологическая эффективность, факторы, мультипликативная модель, цепная подстановка.</p>	<p>O.Pardaev</p> <p>Factors influencing the efficiency of utility service provision and methods of determining them</p> <p>Abstract. This article examines factors influencing the efficiency of utility service provision and methods for determining them. It recommends dividing the factors influencing changes in utility service efficiency into four groups: economic, social, technical, and environmental. The article also describes their content and the focus of the indicators included in each group.</p> <p>Keywords: utilities, economic efficiency, social efficiency, technical efficiency, environmental efficiency, factors, multiplicative model, chain substitution.</p>
--	---

Sanjar Baxronkulovich Boboqulov – SamISI Raqamli iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

SAMARQAND VILOYATIDA UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini tahlil etiladi. Shuningdek soha faoliyatini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan. Taklif etilayotgan mexanizmlar kommunal xizmatlar sifatini oshirish, boshqaruvni shaffoflashtirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: uy-joy kommunal xo'jaligi, davlat tomonidan tartibga solish, boshqaruv mexanizmi, kommunal xizmatlar sifati, infratuzilma modernizatsiyasi, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik, strategik rivojlanish, institutsional islohotlar.

Kirish. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish, eng avvalo, mavjud infratuzilmaning texnik darajasi, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar boshqaruv imkoniyatlari va aholining real ehtiyojlari o'rtasida kuzatilayotgan tafovutlarni bartaraf etishni talab qiluvchi kompleks yondashuvga asoslanadi. Bizningcha, zamonaviy davlat tartibga solish modeli iqtisodiy hamda institutsional mexanizmlar uyg'unligiga tayanib, resurslardan oqilona foydalanish, tariflarning oshkorligi, xizmat sifati bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish va raqobat muhitini shakllantirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Viloyat darajasida tartibga solish mexanizmini yangilash ehtiyoji, avvalo, mavjud normativ-huquqiy me'yorlarni qayta ko'rib chiqish, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ishini hududning o'ziga xos sharoitlariga mos keladigan standartlar asosida boshqarish zarurati bilan izohlanadi. Suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti, elektr ta'minoti, chiqindilarni boshqarish va boshqa kommunal xizmat turlari bo'yicha sifat talablarini yangilash, avariya darajasini kamaytirishga qaratilgan texnik reglamentlarni tatbiq etish, korxonalar faoliyatini litsenziyalash tartibini optimallashtirish davlat ishtirokining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanib, xususiy operatorlarni jalb etish xizmatlar samaradorligini oshirish, investitsiya oqimini ko'paytirish va infratuzilmaning modernizatsiya imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 – yil 5 – oktabrda qabul qilingan “Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasida to'g'risidagi PF-6079-son Farmonida “aholiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali uy-joy

kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish” [1] deb belgilab berganliklaridan kelib chiqib, Samarqand viloyatida aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy kommunal xizmatlarni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish natijasida xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishni yanada oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish bugungi sharoitda yanada muhim bo‘lib, u resurslardan samarali foydalanish, to‘lov intizomini mustahkamlash, xizmatlar sifatini yagona mezonlar asosida boshqarish hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar ishining oshkoraligi va javobgarligini kuchaytirish uchun zarur hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot davrida kommunal xizmatlar bozorini real vaqt rejimida kuzatish, aqlli hisoblagichlar orqali iste‘molni nazorat qilish, aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va ma‘lumotlarni ochiq shaklda taqdim etish davlat boshqaruvida yangi yondashuvlar joriy etilishini talab qilmoqda. Natijada, an‘anaviy nazorat usullariga nisbatan tezkor, samaradorligi yuqori va faktlarga tayangan tartibga solish modeli shakllanishi zarur bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Uy-joy kommunal xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishga doir ilmiy izlanishlar asosan boshqaruv samaradorligini oshirish, mavjud infratuzilmani yangilash, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda tizimning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash masalalariga qaratilgan. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kommunal xizmatlar bozor mexanizmlariga asta-sekin o‘tish, davlatning nazorat va tartibga solish funksiyalarini takomillashtirish, xizmat sifati ustidan monitoringni kuchaytirish bo‘yicha turli konseptual yondashuvlar taklif etilgan. Jumladan, P. Samuelson va J. Stiglitzlarning “Economics of Public Goods” nomli tadqiqotida jamoat tovarlari nazariyasi kommunal xizmatlarning iqtisodiy tabiati, ularda davlat ishtirokining zarurligi hamda tarmoqlarning monopol xususiyati uy xo‘jaliklari farovonligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini asoslab beradi [2].

MDH olimlaridan Merenkov A., Loginov V., Shcheklein R. va boshqalar tomonidan yozilgan “State regulation mechanisms in housing and communal services” nomli ilmiy maqolasida uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirishda energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish, tarif tizimini takomillashtirish, servis korxonalarida boshqaruv madaniyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Ularning ilmiy ishlanmalarida ayniqsa, uy-joy xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitob mexanizmlarini tartibga solish, xizmat sifati indikatorlarini aniq belgilash va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ustuvor o‘ringa ega [3].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan Pardaev M.Q., Mirzaev Q.J. va Pardaev O.M.lar tomonidan yozilgan “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo‘yicha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo‘llari qarab chiqilgan. Shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati mazmuni va ularni hisobga olish yo‘llari tahlil etilgan [4].

Abdullayev Sh., Karimov K., Qurbonov O. va boshqa tomonidan yozilgan “Uy-joy kommunal xizmatlarini boshqarishda institutsional islohotlar” nomli o‘quv qo‘llanmasida mahalliy mutaxassislar tomonidan uy-joy kommunal xizmatlari sohasida institutsional islohotlar, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, boshqaruv shirkatlari faoliyatini samaralashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasida samarali ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ularning izlanishlarida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida mas‘uliyatning yetarlicha aniqlanmagani, tarif siyosatining oshkoraligi pastligi hamda infratuzilmaning texnik ahvoli bilan bog‘liq muammolar asosiy cheklovchi omillar sifatida tilga olinadi [5].

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda kommunal xizmatlarni tartibga solish jarayonida raqamli monitoring tizimlari, aqlli hisoblagichlar, raqamli platformalar, jamoatchilik ishtirokiga asoslangan maslahat kengashlari va inklyuziv boshqaruv modellaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlagan. Bunday yondashuvlar nafaqat xizmat sifati ustidan aholi nazoratini kuchaytiradi, balki davlat tartibga solish tizimini yanada moslashuvchan va natijador qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida tizimni diversifikatsiya qilish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishning qiyosiy tavsifini tadqiq qilish borasida kuzatish, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, nazariy tahlil, tizimli tahlil

qilish, sintez, abstraksiya, induksiya, deduksiya, analogiya, xronologik, monografik usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar ushbu sohada amal qilayotgan boshqaruv tizimi murakkab, ko'p bosqichli va o'zaro bog'liq bo'g'inlardan iborat ekanini ko'rsatdi. Aholi sonining yilma-yil ortib borishi, xizmat ko'rsatish tashkilotlarining texnik vositalari eskirgani, moliyaviy manbalar cheklangani hamda tarif siyosatining barqaror shakllanmaganligi tarmoqning umumiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Olingan monitoring ma'lumotlariga ko'ra, suv va kanalizatsiya tarmoqlari, issiqlik ta'minoti va chiqindi yig'ish yo'nalishlarida infratuzilma yuklamasi oshgani, avariya holatlarining kamaymayotgani hamda yangilanish ishlari uchun zarur xarajatlarning yuqoriligi tizimning asosiy muammolari sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, raqamlashtirishning past darajada bo'lishi ham tarmoq samaradorligini cheklayotgan omillardan biri sifatida aniqlangan. Hududdagi ko'plab xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda yagona elektron nazorat tizimlarining joriy qilinmaganligi sababli to'lovlarni hisoblash jarayoni, avariyalarni tezkor aniqlash va xizmat sifatini monitoring qilish yetarli darajada shaffof emas. “Aqli” hisoblagichlar, “Biling” tizimi va avtomatlashtirilgan kuzatuv qurilmalarining joriy etilmaganligi esa suv va issiqlik energiyasidagi yo'qotishlarning yuqori bo'lib qolishiga olib kelmoqda. Shu bilan birgalikda, boshqaruv subyektlari o'rtasida vazifalarning aniq belgilanmaganligi ham muhim muammo sifatida baholandi. Mahalliy hokimiyat, xizmat korxonalari va boshqaruv shirkatlari o'rtasida mas'uliyatning to'liq ajratilmaganligi takrorlanadigan funksiyalarni keltirib chiqarib, boshqaruv xarajatlarini orttirayotganligi qayd etildi. Yig'ilgan ma'lumotlar aholining xizmat sifati bo'yicha bildirayotgan noroziliklari ko'pincha, uzluksiz ta'minotning ta'minlanmasligi, avariya ta'mirlarning kechikishi hamda to'lov jarayonlarining murakkabligi bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.


Xalqaro tajribaga tayangan holda olib borilgan tahlil esa kommunal xizmatlarni samarali tartibga solish ko'proq raqamlashtirilgan monitoring tizimidan foydalanish, tarif siyosatini oshkora yuritish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va infratuzilmani muntazam modernizatsiya qilish darajasi bilan belgilanayotganini ko'rsatib bermoqda. Shu maqsadda viloyatda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni kamchiliklari va avzalliklarini tahlil qilishimizni taqozo etmoqda (1-rasm).

Afzalliklar:	Kamchiliklar:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlat tomonidan tartibga solinishi 2. Hududiy boshqaruv tizimi. 3. Xizmatlarning barqarorligi. 4. Raqamlashtirishni boshlanish jarayoni 5. Bazi xalqaro tajribalar 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Infratuzilmani eskirganligi 2. Moliyalashtirishni cheklanganligi 3. Boshqaruvdagi nomutanosibliklar. 4. Xizmat sifatidan aholini qoniqmasligi 5. Tarif siyosatini takomillashmaganligi

1-rasm. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning afzalliklari va kamchiliklari [10].

Samarqand viloyatidagi uy-joy va kommunal xizmatlar tizimi bir qator ijobiy tomonlarga ega: davlat tomonidan tartibga solinishi, hududiy boshqaruvning mavjudligi va xizmatlarning barqarorligi. Shu bilan birga, tizim samaradorligini pasaytiruvchi muammolar ham mavjud eskirgan infratuzilma, moliyaviy cheklovlar, raqamlashtirishning past darajasi va boshqaruvdagi nomutanosibliklar. Shuning uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamlashtirishni

kengaytirish, tariflarni shaffoflashtirish va boshqaruv mas’uliyatini aniq belgilash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuningdek, viloyatda 2024-2025 yillar davomida aholidan uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish korxonalari va boshqarmalariga kelib tushgan aholi tomondan murojaatlar ham so’ngi vaqtlarda kamayib borayotganligini ko’rishimiz mumkin. Buning asosiy sabalaridan biri sifatida tizimda islohotlar amalga oshirilayotganligidan deb o’ylashimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. 2024-2025 – yillarda Samarqand aholisini uy-joy kommunal xizmatlar bo’yicha tegishli tashkilotlarga qilgan murojaatlar soni (birlikda) [6].

2-rasm ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, viloyatda o’tgan 2024 -yilga nisbatan 2025 yil noyabr oyigacha qariyb uch barobar murojaatlar soni kamayganligini ko’rishimiz mumkin. Xususan, 2024 – yil 95769 ta murojaatni aholi amalga oshirgan bo’lsa, 2025 – yil noyabr oyiga kelib 33750 ta murojaatga yetganligi ko’rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, aynan kuz-qish mavsumida murojaatlar oshganligini ham ko’rishimiz mumkin. Chunonchi, 2025 – yil oktabr oyida 3012 ta murojaat amalga oshirilgan bo’lsa, noyabr oyiga kelib 4068 ta murojaat kelib tushgan. Bu o’tgan oyga nisbatan 30 % ko’p degani. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, kommunal xizmat ko’rsatish sohasidagi ba’zi texnologik eskirishlar, boshqaruvni samarali tashkil etilmaganligi, mas’uliyatsiz xodimlar sababli murojaatlar soni batamom yo’qolmayotganligini ko’rishimiz mumkin [7].


Yuqorida keltirilgan muammolar, sohadagi kamchiliklar, boshqaruvni qoniqarli faoliyat ko’rsatmayotganligi, raqamlashtirishning yetarli emasligidan kelib chiqib, uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish subyektlar faoliyatini tashkiliy iqtisodiy mexanizmi takomillashtirishimiz zaruratini ko’rsatmoqda. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlarini tartibga solish mexanizmi bu aholi farovonligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va tizimning uzluksiz ishlashini ta’minlashga yo’naltirilgan kompleks yondashuvdir [9]. Ushbu mexanizm normativ-huquqiy, iqtisodiy, institutsional hamda texnologik tarkibiy qismlarni birlashtiradi va xizmat ko’rsatish jarayonini samarali boshqarishga imkon yaratadi (3-rasm).

3-rasmdan ko’rinib turibdiki, davlat tomonidan uy-joy kommunal xizmatlarini tartibga solish mexanizmi birinchi navbatda normativ-huquqiy bazani mustahkamlashga qaratilgan. Bu jarayonda xizmatlar sifatini belgilovchi standartlar va texnik reglamentlar yangilanadi, korxonalarining litsenziyalash tizimi takomillashtiriladi, xizmat ko’rsatishdagi javobgarlik aniq belgilab qo’yiladi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etiladi. Shu bilan birga, tarif siyosati shaffof, iqtisodiy asoslangan va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Mexanizmnining iqtisodiy yo’nalishi barqaror moliyalashtirishni ta’minlashga yo’naltirilgan. Bu, bir tomondan, korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, boshqa tomondan esa investitsion loyihalarni jalb qilish, energiya tejamkorligi tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi [8]. Xizmatlarning samaradorligini oshirish maqsadida smart-hisoblagichlar, elektron billing tizimi, monitoring platformalari kabi raqamli texnologiyalar joriy etiladi. Natijada, nafaqat nazorat kuchayadi, balki aholiga xizmat ko’rsatish qulayligi va tezkorligi ham yaxshilanadi.

Mexanizmnining institutsional tarkibi xizmat ko’rsatuvchi korxonalar, boshqaruv servis markazlari va mahalliy hokimiyat organlari o’rtasidagi mas’uliyatni aniq belgilash, boshqaruv funksiyalarini optimallashtirish va xizmat ko’rsatish jarayonlarini yagona standartlar asosida

integratsiya qilishga qaratilgan. Shu tarzda, davlat nazorati, moliyaviy boshqaruv va operatsion samaradorlik uygʻunlashadi.



3-rasm. Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi [10].

Doimiy monitoring va baholash mexanizmi esa tartibga solish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Xizmat sifati, avariya darajasi, energiya tejallishi, to'lov intizomi va aholining qoniqish darajasi kabi indikatorlar bo'yicha tizimli nazorat olib boriladi va natijalarga muvofiq siyosiy hamda operatsion qarorlar yangilanadi. Shu bilan Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi nafaqat tizimning texnik va moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki aholining xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, hudud infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik va ushbu takliflarimiz soha faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Takliflar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, uy-joy kommunal xizmatlarini avtomatlashtirilgan monitoring orqali avariya holatlarni tezda aniqlash, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va xizmat sifati bo'yicha ochiqlikni kuchaytirish, shuningdek sovuq va issiq suv hamda kanalizatsiya tarmoqlarida smart-sanoq qurilmalarini o'rnatish orqali raqamlashtirish jarayonini kengaytirish va aqlli monitoring tizimlarini joriy etish.

Ikkinchidan, uy-joy kommunal xizmatlar tariflar, infratuzilmani modernizatsiya qilish, shuningdek, energiya samaradorligi darajasiga moslashtirish orqali tarif siyosatini samarali boshqarish hamda mahalliy budjet va xususiy sektor investitsiyalarini uyg'unlashtirgan moliyaviy mexanizm yaratish orqali uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash.

Uchinchidan, Samarqand viloyati uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish subyektlarida davlat organlari, boshqaruv shirkatlari va xususiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida vazifalar va javobgarliklarni aniq belgilash orqali integratsiyalashgan boshqaruv tizimini yaratish.

To'rtinchidan, viloyatda eskirgan suv, issiqlik va kanalizatsiya tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni tadbiq etish

hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan monitoring tizimini tashkil etish.

Xulosa o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, taklif qilingan chora-tadbirlar Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmatlarini samaradorligini oshirish, xizmat sifatini yuksaltirish va boshqaruv jarayonlarini shaffoflashtirishga yo‘naltirilgan. Raqamlashtirish va smart monitoring tizimlarini joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish hamda avariylarni tez aniqlash imkoniyati yaratiladi. Tarif siyosatini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy mustahkamligini kafolatlaydi. Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi davlat organlari, xususiy sektor va aholi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, javobgarlikni aniqlashtirish va xizmat sifati monitoringini yaxshilaydi. Shu bilan birga, infratuzilmani modernizatsiya qilish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish tizimning uzluksiz va sifatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Natijada, ushbu takliflar majmui hududda kommunal xizmatlarni rivojlantirishning barqaror, uzluksiz va aholining ehtiyojlariga mos keladigan mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020 – yil 5 – oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni. T.: www.lex.uz

[2]. Samuelson, P., Nordhaus, W. Economics of Public Goods. New York: McGraw-Hill. 2010.

[3]. Merenkov A. and others. State regulation mechanisms in housing and communal services. Public Utilities Management Review, 11(3), 2019. 67–78.

[4]. M.Қ.Пардаев, Қ.Ж.Мирзаев, О.М.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма. “ИQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил. 384-б.

[5]. Abdullayev Sh. Uy-joy kommunal xizmatlarini boshqarishda institutsional islohotlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2021.

[6]. <https://www.yellowpages.uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlab chiqildi

[7]. V.Yodgarov, D.Butunov “Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi” Darslik.Toshkent. “Noshir” nashriyoti. 2012 yil, 127-bet.

[8]. Xannarov K.K. O‘zbekistonda aholini uy-joy bilan ta’minlashdagi murakkabliklar va ularning yechimlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. 2024-yil, noyabr. № 11-son. 414 bet.

[9]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumoti. <https://stat.uz/>

[10]. Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

<p>С.Бобокулов</p> <p>Совершенствование механизма государственного регулирования жилищно-коммунального хозяйства в Самаркандской области</p> <p>Аннотация. В данной статье анализируются организационно-экономические аспекты совершенствования механизмов государственного регулирования жилищно-коммунального хозяйства в Самаркандской области. Также в ней разработаны предложения и рекомендации по развитию отраслевой деятельности. Предлагаемые механизмы служат повышению качества коммунальных услуг, обеспечению прозрачности управления и рационального использования ресурсов.</p> <p>Ключевые слова: жилищно-коммунальное хозяйство, государственное регулирование, механизм управления, качество коммунальных услуг, модернизация инфраструктуры, цифровизация, финансовая стабильность, стратегическое развитие, институциональные реформы.</p>	<p>S.Bobokulov</p> <p>Improvement of the mechanism of state regulation of housing and utility services in the Samarkand region</p> <p>Abstract. This article analyzes the organizational and economic aspects of improving the mechanisms of state regulation of housing and communal services in the Samarkand region. Also developed proposals and recommendations for the development of the industry's activities. The proposed mechanisms serve to improve the quality of public utilities, ensure transparency of management and rational use of resources.</p> <p>Keywords: housing and communal services, state regulation, management mechanism, quality of utilities, infrastructure modernization, digitalization, financial stability, strategic development, institutional reforms.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.